

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2025-yil 18-oktabr № 12 (1558)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

HALOLLIKKA TAHDID

Manfaatlar to'qnashuvi ishlab chiqarish samaradorligi va ishchi-xodimlar o'rtasidagi ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2 ➔

OGOHLIK

Metallurglarning xavfsizligini ta'minlash, kuz-qish mavsumida turli xavflarning oldini olishga xizmat qiladi.

3 ➔

MUNOSABAT

Agar inson bir yurtida yashar ekan, o'sha yurtning tiliga e'tiborsiz bo'lishi – bu shunchaki unutish yoki esdan chiqarish emas.

4 ➔

“O'ZMETKOMBINAT”

“O'zmetkombinat” AJ xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga alohida e'tibor-qaratmoqda. Xorijning yetakchi kompaniyalari va banklari bilan samarali hamkorlik o'rnatish orqali kombinat moliyaviy ahvolini yaxshilash, ishlab chiqarishni barqarorlashtirish, zamonaviy talablar asosida rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

BARQAROR RIVOJLANISH YO'LIDA

Shu maqsadda kombinat Boshqaruvi raisi – Bosh direktor Bahodir Abdullayev rahbarligidagi delegatsiyamiz Londonda bo'lib Yevropaning yetakchi moliya institutlari bilan bir qator muhim uchrashuvlarda ishtirok etdi.

Jumladan delegatsiyamiz “Société Générale” banki rahbariyati bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda xalqaro moliyaviy hamkorlikni kengaytirish, jumladan, yevroobligatsiyalar chiqarish, kredit liniyalarini ochish hamda xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlari muhokama etildi.

“Fitch Ratings” xalqaro kredit reyting agentligi bilan esa moliyaviy barqarorlik masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, “Moody's Investors Service” agentligi vakillari bilan uchrashuvda tomonlar moliyaviy ko'rsatkichlar, investitsion jozibadorlik va korxonaning rivojlanish strategiyasini muhokama qildilar.

Londonda “O'zmetkombinat” AJ “Standard Chartered Bank” va ICIEC vakillari ishtirokida Quyuv-prokatlash majmuasining qurilishini yakuniga yetkazish maqsadida 7 yil muddatga 132,5 mln. yevro miqdorida kredit shart-nomasini imzoladi.

Moliyalashtirish “Standard Chartered Bank” (Buyuk Britaniya) va “KfW IPEX-Bank GmbH” (Germaniya) tomonidan Islom investitsiyalari va eksport kreditlarini sug'urtalash korporatsiyasi (ICIEC) sug'urta kafolati ostida tashkil qilindi.

Olingan mablag'lar Quyuv-prokatlash majmuasining qurilishi, foydalanishga topshirilishi va ishga tushirilishi bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish hamda qayta moliyalashtirish yo'nalishida ishlatiladi.

“O'zmetkombinat” AJ delegatsiyasi Londonda “J.P. Morgan banki” va “Citibank”, ICBC “Standard Bank”, “Morgan Stanley” va “SONA Capital”, “MUFG Bank” vakillari, “S&P Global Ratings” vakillari bilan ham uchrashuvlar o'tkazdi.

Muzokaralar davomida yevroobligatsiyalar chiqarish, xalqaro reytingni yaxshilash va moliyalashtirishning yangi mexanizmlari muhokama qilindi. Shuningdek, tomonlar xalqaro kredit reytingini yanada yaxshilash, kelgusidagi yevrobondlar emissiyasi hamda yirik sanoat loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari kabi masalalarni ham ko'rib chiqdilar.

(Davomi 2-sahifada).



ZOLDIR PROKATLASH BO'LINMASIDA

EHTIYOJ HAM KATTA, NATIJA HAM

Mamlakatimizda sanoatni yanada rivojlantirish, ichki ehtiyojlarni qondirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda turli tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari, ayniqsa, metallurgiya sohasi va unga bog'liq bo'linmalar muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, “O'zmetkombinat” AJning Zoldir prokatlash bo'linmasi faoliyati alohida e'tirofga loyiq. Ushbu bo'linma yurtimiz sanoati uchun zarur bo'lgan yuqori sifatli po'lat zoldirlarni ishlab chiqarayotgan, doimiy o'sish va rivojlanish sari intiluvchi yetakchi bo'linmalardan biridir.

Bugungi kunda po'lat zoldirlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Xususan, kon-metallurgiya kombinalari, sement ishlab chiqaruvchi korxonalarning bu mahsulotga ehtiyojlari katta.

Aytish joizki, jamoa samarali faoliyati bilan mehnatda yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Joriy yilning o'tgan oyi yakunlariga ko'ra, bo'linma 20 600 tonna o'rniga 24 160 tonna mahsulot ishlab chiqarishga erishdi. Bu esa belgilangan reja-ni 117,3 foizga bajarilganini anglatadi. E'tiborga loyiq jihati shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotning 23 953 tonnasi po'lat zoldirlarni tashkil etdi.



Yutuqlar faqat bir oy bilangina cheklanib qolmadi. Joriy yilning 9 oyi mobaynida bo'linmada 191 134 tonna mahsulot tayyorlanib, umumiy reja 103,5 foizga bajarildi. Bu ko'rsatkichlardan 190 076 tonnasi aynan po'lat zoldirlar ulushiga to'g'ri keldi.

Zoldir prokatlash bo'linmasi jamoasi zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarib, faoliyatida yuqori mehnat unumdorligi, sifat ko'rsatkichlari va yangilikka intilish kabi muhim omillarni ustuvor qo'ygan holda, sanoatimizning barqaror rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Diyor ZULFIQOROV.

Til muloqot vositasigina bo'lib qolmay, insonning ichki olamini ifodalaydi, dunyoni teran idrok qilishiga ko'maklashadi, dunyoqarashi va kamolotini belgilab beradi. Shuning uchun ham yer yuzida rivojlanayotgan har qanday davlat o'z tilining mavqesini yuksaltirishga intiladi.

Milliy til davlatning rivoji, qolaversa uning millat sifatida dunyo tamaddunida o'z munosib o'rinni egallashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk tariximiz va ajdodlarimizning merosi ham aynan ona tilimiz orqali bizgacha yetib kelgan.

1989-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilingan. Ushbu qonun o'sha davrda xalqimizning mustaqillik uchun qo'yilgan dastlabki qadami bo'lgan, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Qonun

21-OKTABR – O'ZBEK TILI BAYRAMI

TIL – MILLAT RUHI



moddalarida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tili" ekanligi belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etgan.

2020-yil 10-aprelda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi esa xalqimizning dilidagi, orzusidagi ish bo'lgan edi. Ushbu qonun bilan har yili 21-oktabr mam-lakatimizda "O'zbek tili bayrami kuni" sifatida keng nishonlanadi.

Millatning nufuzi ana shu millat, xalq tilining qanchalik keng tarqalganligi, mukammalligi, ommalashganligi, boy va sofligi bilan belgilana-di. Shu ma'noda aytish joizki, ona tilimiz – o'zbek tili ham asrlar osha o'z sofligini, o'ziga xos jihatlari saqlab, sayqallanib, yashab kelayotgan dunyodagi o'nlab tillardan biri hisoblanadi.

Ne'mat SOLIJONOV.

BARQAROR
RIVOJLANISH YO'LIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

"O'zmetkombinat" AJ delegatsiyasi Buyuk Britaniyadan so'ng Hindistonda ham xizmat safarida bo'ldi. Delegatsiyamiz kombinat Boshqaruvi raisi – Bosh direktor Bahodir Abdullayev rahbarligida Hindistonning Baka Bara shahridagi PVJ (DRI) ishlab chiqarish zavodi faoliyati bilan tanishdi. Tashrifning asosiy maqsadi xalqaro tajriba almashish, yangi texnologiyalarni o'rganish va ularni "O'zmetkombinat"da ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish imkoniyatlarini baholashdan iborat. Bu tashrif "O'zmetkombinat"ning xomashyo ta'minotiga oid muammolarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zmetkombinat" AJning xalqaro hamkorliklarini kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlari samarali natijalar bermoqda. Londondagi muzokaralar va Hindistondagi xizmat safari doirasidagi kelishuvlar, hamkorlikning mustahkamlanishi, kombinatning barqaror faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlar "O'zmetkombinat"ni nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda raqobatbardosh sanoat korxonasiga aylantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ismat DIYOROV.

YUQORI SUR'AT VA SIFAT

Navli prokatlash bo'linmasida ishlab chiqarilayotgan po'lat sim o'ramlari – diametri 5,5-16 mm. bo'lgan katanka asosan temir-beton va metall mahsulotlari ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonalar, shuningdek, po'lat simlar uchastkasi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Joriy yilning o'tgan oyida bo'linmada 257 tonna katanka ishlab chiqarildi va belgilangan reja 128,5 foizga bajarildi. Shuningdek, yil boshidan buyon to'qqiz oy ichida rejadagi 1800 tonna o'rniga 2720 tonna sifatli katanka ishlab chiqarildi. Reja 150,1 foizga bajarildi.

Aliboy NOZIMOV.

Metallurgiya sanoati – mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, unga katta miqdordagi ishchi kuchlari, murakkab texnologiyalar va katta moliyaviy investitsiyalar jalb qilingan. Har qanday jamiyatda, tashkilotlarda va hatto har bir shaxs hayotida bo'lganidek, metallurgiya sohasida ham turli manfaatlar to'qnashuvi holatlari sodir bo'lishi mumkin. Bu holatlar ishlab chiqarish samaradorligi va ishchi-xodimlar o'rtasidagi ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

MANFAATLAR TO'QNASHUVI

HALOLLIK VA ISHONCHGA TAHDID


Kombinat o'z faoliyatida shaffoflik va halollikni bosh mezon qilib belgilagan. Zero bugun jahon bozoridan mustahkam joy olish avvalambor ishonch masalasiga ham bevosita bog'liq. Biroq, har qancha mustahkam poydevor ham, agar unda ko'zga ko'rinmas jarliklar paydo bo'lsa, uning barqarorligiga xavf tug'iladi. Ana shunday "jarliklar"dan biri bu – manfaatlar to'qnashuvidir.

Ma'lumki, manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy manfaatlar insonning ishdagi vazifalarini adolatli va xolis bajarishiga ta'sir qilgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lgan holatdir.

Oddiy qilib aytganda, insonning shaxsiy manfaati ishdagi qarorlariga ta'sir qilish holati manfaatlar to'qnashuvi deyiladi. Masalan, bir rahbar tenderda o'z qarindoshiga yordam bersa, yoki korxonaning pulini o'z tanishlari orqali sarflasa – bu halollik mezonlariga to'g'ri kelmaydi. Agar xodim shaxsiy biznesini ishxona resurslari yordamida rivojlantirsa – bu ham manfaatlar to'qnashuvidir. Yoki kimdir kombinatda qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir qilish maqsadida o'zining shaxsiy tanishlarini faol tarzda ishga solsa – bu holat ham halollik mezonlariga zid hisoblanadi.

Manfaatlar to'qnashuvi – korrupsiyaning boshlanishidir. Korrupsiya faqat pul olish-berish bilan bog'liq emas. U shaxsiy manfaatni xizmat manfaatlaridan ustun qo'yish bilan boshlanadi.

Agar shaxsiy manfaatlar umumiy ishdan ustun bo'lsa, ishonch yo'qoladi, jamoada norozilik paydo bo'ladi, natijada butun korxona jabr ko'radi. Eng yomoni kombinat



obro'siga putur yetkaziladi.

Metallurgiya kombinatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va bartaraf etish ustuvor vazifa qilib belgilagan. Bu borada qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan har bir rahbar o'z manfaatlar haqida ochiq ma'lumot beradi, xodimlar uchun halollik va etika bo'yicha o'quvlar o'tkazilyapti, har qanday shubhali holatni xabar qilish mumkin bo'lgan ishonch telefonlari ishlayapti, barcha kelishuvlar ochiq va shaffof tarzda amalga oshirilyapti.

Manfaatlar to'qnashuvini jamiyat uchun xavfli infeksiya deb hisoblash mumkin. Agar vaqtida davo topilmasa – natijalari jiddiy bo'ladi. Shuning uchun barchani birgalikda manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashishga chaqirib qolaman.

Har birimiz manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga intilsak, adolat va vijdon amriga bo'ysunib ish yuritsak korxonamiz ham, yurtimiz ham barqaror rivojlanadi.

Muhammad MONDJAZIB,
"O'zmetkombinat" AJning Yuridik departamenti direktori.

KORRUPSIYA TARAQQIYOT KUSHANDASI

"O'zmetkombinat" AJ Xodimlar malakasi-rivojlantirish markazida kombinat Komplayens xizmati bilan hamkorlikda keng qamrovli maxsus o'quv-seminarlari tashkil etildi. Ular an'anaviy va onlayn (ZOOM) formatida, ma'ruza, muhokama, interfaol suhbat, trening va muzokaralar shaklida o'tkazildi.

"O'zmetkombinat" AJ Komplayens xizmati xodimi G'anisher Nurmatov "O'zmetkombinat" AJning shu yil 16-sentabrdagi "Korrupsiya ga qarshi kurashish va komplayens nazorati" buyruqlari, shuningdek, o'quv kursining samaradorligi, belgilangan yo'nalishlar va indikatorlar asosida reyting baholash haqida qatnashchilar-



ga ma'lumot berdi.

Shu tariqa, maxsus o'quv kursi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi eng dolzarb masalalar, xususan, amaliy bilim va ko'nikmalarni oshirish yo'llari, samaradorlikni baholash uslublari muhokama qilindi.

Ushbu kurs ishtirokchilarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni tizimli nazorat va halollik mezonlariga rioya qilishga undashda samarali bo'ldi. Bunday seminarlar tashkilotda shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi.

Alisher TOSHMATOV.

HAMISHA HUSHYOR VA OGOH BO'LING!

Yong'inlar bilan hodisalarning oldini olish maqsadida yurtimizda joriy yilning 15-sentabridan 15-oktabriga qadar "Yong'indan ogohlik" umum-milliy kampaniyasi oyligi o'tkazildi. Oylukda ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar yanada kuchaytirilib, metallurglarning ogohligini oshirish, yong'inlar va boshqa favqulodda vaziyatlar bo'yicha muhim bilim va ko'nikmalarni singdirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tarkibiy bo'linmalarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, is gazidan zaharlanishning oldini olish, elektr jihozlaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha ishchi-xodimlarga tushuntirish ishlari olib borildi. Uchrashuvlarda mutaxassislar tomonidan yong'in paytida to'g'ri harakat qilish, evakuatsiya qoidalarini, birinchi yordam ko'rsatish usullari bo'yicha amaliy ko'rsatmalar berildi.

"Yong'indan ogohlik" kampaniyasi doirasida amalga oshirilgan bunday chora-tadbirlar metallurglarning xavfsizligini ta'minlash, kuz-qish mavsumida turli xavf-xatarlarning oldini olish hamda yong'inlarning kelib chiqish ehtimolini keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Bilamizki, kuz-qish mavsumi kirib kelishi, havo haroratining pasayib borishi bilan gaz va boshqa turdagi muqobil yoqilg'ilar, isitish moslamalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Unutmasligimiz kerakki, nosoz isitish jihozlaridan foydalanish yoki ulardan noto'g'ri foydalanish turli ko'ngilsiz hodisalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Hayotimizda ro'y berayotgan yong'in bilan bog'liq ko'plab salbiy holatlarga asosan, fuqarolarning xavfsizlik talablariga amal qilmasliklari yoki ularga beparvolik bilan qarashi sabab bo'lmoqda.

Ana shundan kelib chiqib, bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida gaz uskunalaridan va elektr isitish moslamalaridan foydalanishda quyidagi yong'in xavfsizlik talablariga rioya qilinishi zarurligini yana bir bor eslatib o'tamiz:

– isitish moslamalaridan foydalanishda ularni ishlatish bo'yicha belgilangan tavsiya va yo'riqnoma talablariga rioya qiling;

– nostandart, qo'lbola, nosoz gaz va elektr isitish

moslamalaridan foydalanmang;

– yonuvchi narsa va suyuqliklar olovdan va isitish asboblari uzoqda saqlanishi kerak;

– bir nechta elektr asboblarni bir rozetkaga bir vaqtda ulamang;

– gugurt – o'yinchoq emas! Buni doimo farzandlaringizga uqtiring;

– tungi vaqtda xonadonlarda, shuningdek, korxona, tashkilot va muassasalarda isitish tizimini nazoratsiz qoldirmang;

– isitish pechlari va mo'rilarining sozligiga, turli buyum va to'siqlar bilan berkitilmaganligiga hamda maxsus tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida tozalanishiga alohida e'tibor bering;

– gaz uskunalarini ulash tartib-qoidalariga rioya qiling, gaz tarmog'iga rezina shlang orqali ulanishiga yo'l qo'ymang;

– agar xonada gaz hidini sezsangiz, chiroq va uchqun chiqaruvchi moslamalardan aslo foydalanmang, darhol xonani shamollating hamda gaz xizmatiga zudlik bilan xabar bering.

Hurmatli metallurglar! Yuqorida sanab o'tilgan tavsiyalarga amal qiling, yong'inlar kelib chiqishining oldini oling, hamisha hushyor va ogoh bo'ling. Shu orqali siz o'zingiz, yaqinlaringiz, hamkasblaringiz salomatligi va hayoti xavfsizligini ta'minlashingiz mumkin.

Diyor BOBONAZAROV,
"O'zmetkombinat" AJ OYOXTTEB
boshlig'i, podpolkovnik.



ZAMONAVIY YASHIRIN TAHDID

SHAXSIY TAJRIBA – HAQIQATNI ANGLATADIGAN KO'ZGU

So'nggi yillarda odamlar gazeta, jurnal va kitob o'qishdan ancha chekindi. Bugungi kunda bozorda semichka sotib o'tirgan ayoldan tortib, mas'ul lavozimda ishlayotgan shaxsgacha deyarli har kim telefon va ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan.

Ko'pincha, faqat uch-to'rt daqiqa ijtimoiy tarmoqqa kirish niyatida telefonni ochamiz. Biroq, ko'p hollarda bu "uch daqiqa" soatlab vaqtni yeb qo'yadi. Xususan, qisqa va qiziqarli videolavhalar yoki matn shu qadar jiddiy e'tiborni tortadiki, inson o'zi bilmagan holda vaqtni behuda sarflab qo'yadi.

Mutaxassislarning fikricha, bu kabi yengil




va ko'ngilochar videolar, matnlar miyani jiddiy fikrlashdan chalg'itadi, diqqatni pasaytiradi, xotirani zaiflashtiradi va yuzaki qabul qilish odatini shakllantiradi.

Jiddiy zararlari bor ekan

Men ham bu holatni shaxsan boshdan kechirdim. Ataylab 3-4 oy mobaynida ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa, qiziqarli videolarni muntazam tomosha qildim. Natijada shunday xulosaga keldimki, bu odat insonga hech qanday manfaat keltirmaydi, aksincha, jiddiy zararlari bor ekan.

Avvalo, kitob va gazeta o'qishga na vaqt, na



havas qoldi. Xotira susaydi, hatto, 1-2 kun oldin ko'rilgan videolarni ham eslay olmadim. Vaholanki, kitobda, gazetada o'qilgan ma'lumotlar o'n yillar o'tib ham yodda qolardi.

Avvallari kinofilmlarni bemalol tomosha qilardim. Endi esa bir filmni ham oxirigacha ko'rishga sabrim yetmay qoldi. Bitta filmni 3-4 kunda bo'lib-bo'lib ko'raman, biroq ijtimoiy tarmoqdagi turli qisqa videolarga esa soatlab behuda vaqt ketaveradi. Bu nafaqat sog'liqqa, balki vaqtni bekorga o'tkazishga ham olib keladi.

Qaramlik va uning oqibatlari

Olimlarning ta'kidlashicha, qisqa videolarga qaramlikni odamlar sigaret yoki spirtli ichimliklarga bo'lgan qaramlikka o'xshatish mumkin. Bu esa turli ruhiy kasalliklar, depressiya va xavotirli holatlar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.


Neyrobiologlar fikriga ko'ra, qisqa videolar hatto alkohol ichimliklaridan besh barobar zararli. Ular "arzon dofamin"ni tez yetkazib, asab tizimini izdan chiqaradi va narkotikka o'xshash kuchli odatni shakllantiradi.

Miyaning prefrontal qismi – huzur, diqqat, o'rganish, o'qish, sabr va iroda uchun javobgar sohasi – uzluksiz skrolling tufayli shikastlanadi. Atigi 2-3 oy muntazam qisqa videolar ko'rish miyada degradatsiyani boshlab, biror ishga diqqatni jamlashni imkonsiz holga keltiradi.

Yoshlar orasidagi xavf va JSST ogohlantiruvlari

Qisqa videolar nafaqat diqqat va xotirani pasaytiradi, balki ruhiy muammolar — depressiya, xavotir, charchash kabi holatlarga ham sabab bo'ladi. Uyqu sifati yomonlashadi, uyqusizlikka sabab bo'ladi. Bu holat, ayniqsa, o'smirlar orasida ko'p uchramoqda.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda qariyb 1 milliard kishi ruhiy salomatlik muammolari bilan yashaydi. JSST ruhiy buzilishlar, xususan, depressiya va xavotirli holatlar smartfon va ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan insonlar orasida keng tarqalishini prognoz qilmoqda.



Xulosa va tavsiya

Mutaxassislar nafaqat qisqa videolarni, balki ijtimoiy tarmoqlarni ham cheklashni tavsiya qilishmoqda. Shundagina miya haqiqiy yutuqlardan zavqlanishni o'rganadi, diqqat va xotira yaxshilanadi, vaqt samarali o'tadi.

O'qish, tafakkur, uzoqroq formatdagi axborotlar bilan ishlash qobiliyati inson uchun bebaho salohiyatdir. Uni yengil-ko'ngilochar videolar qurboniga aylantirmaslik kerak.

Diyor ISMADIYOROV.

HADISLAR BO'STONI

Butun umr ezgulikni tilanglar!

Ummatimning rahmdillaridan va shafqat-lilaridan fazilat istanglar! Chunki sizlar ularning qanotlari ostida yashaysizlar.

Kim bir musulmonga bu dunyoda yordam bersa, Alloh Oxiratda unga yordam qiladi.

Kimniki Alloh Taolo do'st tutsa, unga odamlarning hojatlari tushadigan qilib qo'yadi.

Allohnin ne'matlari bilan yaxshi qo'shnichilik qilinglar, zero u biror oiladan ketib qolsa, qaytib kelmasligi mumkin.

Mazlumning duosidan saqlaninglar, garchi u kofir bo'lsa ham. Chunki uning duosi to'siqsizdir.

Qachon birortangiz mol-dunyo va xilqat-da o'zidan afzalroq kishini ko'rsa, o'zidan pastroqqa qarasin!

Imom Buxoriy rivoyatlari.

To'plovchi Ibrohimjon domla INOMOV.



O'ZINGGA QAYTADI

Natija shuki, olam bir tog'ga o'xshaydi. Yaxshi yoki yomon so'zingning aksi o'zingga, faqat o'zingga qaytadi. Men yaxshi gap aytdim, tog' yomon javob qaytardi deya olmaysan. Bu - imkonsiz.

Chunki tog'da bulbul sayrasa, aks-sado bo'lib hech qachon eshak yoki qarg'aning ovozi qaytmaydi. Aks-sado eshakning ovozi, demak, bilgilki, bu yoqda hangragan ham eshakdir.

Jaloliddin Rumi.

RUHIY TUSHKUNLIK
DAVOSI

1. Alamlarni hadeb ichga yutavermang, bu o'zingizga qarata o'q uzishdek gap.

2. Xatolaringizni tabiiy hol deb qabul qiling. Bu, yanglish ishlardan to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

3. Kuchingizni to'g'ri taqsimlang, muhim ishlar birinchi darajali, qolganlari keyingi o'rinlarda tursin. Erishgan yutuqlaringizdan xursand bo'lishni o'rganing.

4. Yolg'izlikka berilmang. Ayniqsa, stress vaqtida odamlar bilan birga bo'ling, do'stlarga qo'ng'iroq qiling, yangi tanishlar orttiring, mashg'ulotlaringizni ko'paytiring.

5. Bo'lib o'tgan ko'ngilsiz voqeani o'ylab, o'zingizga shunday savol bering: "Muammoga juda katta ahamiyat berib yubormayapmanmi? Shu narsa asabiylashishimga arziydimi? Bundan battar bo'lganida, qiyinchilikni yengib o'ta olarmidim?"

Bu savollarga javob topish vaziyatga xolis, his-hayajonsiz xotirjam baho berishga undaydi.

"Baxtli hayot sari" kitobidan.

Agar inson bir yurtida yashar ekan, o'sha yurtning tiliga e'tiborsiz bo'lishi - bu shunchaki unutish yoki esdan chiqarish emas. Bu, avvalo, o'sha jamiyatga nisbatan befarqlikni anglatadi. Shu zaminda non yeb, suv ichib, bir qismiga aylanib turib, xalqning tiliga bepisand qarash - nafaqat hurmatsizlik, balki o'zini o'sha xalqdan uzoq tutishni anglatadi.

MUNOSABAT KO'ZGUSI

Tilni bilish - faqat muloqot vositasi emas, balki o'sha xalqning tarixini, madaniyatini, dardiyu shodligini anglash demakdir. Agar bu narsalar qiziq emas ekan, demak, inson o'zi yashab turgan joyda tana bilan bor, ammo ruhan yo'q.

Boshqalarni tushunish uchun avval ularning tilini tushunish kerak. Bundan qochish - na ma'naviyat, na aql, na faxr olib keladi.

Tilni bilish - yurtga bo'lgan munosabat ko'zgusidir.

ONA TILI

Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi... O'lim oldidan onasini ona tilida yo'qlaydi...

UNUTMANG

Ona tilini unutmoq, - o'z onasini unutmoq demakdir!

O'tkir HOSHIMOV.

IBRATLI VOQEA

"...BILMASA BALIQ, BILAR XOLIQ"

Bir tanishimning farzandi yo'l transport ho disasi oqibatida bir necha yil to'shakga mixlanib qoldi. Tanishim uni davolatish uchun bor budini sarfladi. Hattoki pul topolmay odamlardan yordam so'ray boshladi. Bir necha bor uyimga kelib farzandini davolatishga yordam so'radi. Hatto o'zinga pul zarur bo'lib turgan holatda ham uning qo'lini quruq qaytarmadim.

Yaqinda uning o'g'li sog'ayib yana yurib ketganini eshitib xursand bo'ldim.

Bir kuni oila a'zolarim bilan mashinada mana shu tanishimning ko'chasidan o'tib ketayotib g'alati ahvolga tushdim. Ikki mashina zo'rg'a sig'adigan asfaltlangan ko'chada bir yigit turib olgan ekan. Aynan uning oldida ikki tarafdin mashina ro'para kelib qoldik. Yigit ko'chaning men tarafida bo'lgani uchun chekkaga chiqib turishi uchun ogohlantiruvchi signal chaldim.

Bu yigit mashinalarga yo'l bo'shatish o'rniga menga qarab qo'pol gaplarni gapirib ketdi. Farzandlarimdan ham kichik bo'lgan bu yigitga dashnom bermoqchi edim hamki qizim: - Tanishingizning yaqinda oyoqqa turgan farzandi-ku bu yigit, - degan gapi shashtimni qaytardi.

Qarang, bu og'zi shaloqni tanimasamda unga yordam berib rahmat o'rniga bu gaplarni eshitdim-a, degan fikrlar ham xayolimdan o'tib jahlim chiqdi. Biroq donishmandlarimizning odamdan faqat yaxshilik qoladi. Hatto tanimagan, bilma-



gan odamlarga ham yaxshilik qilish kerak, degan hikmatli gaplari yodimga tushib o'zimni qo'lga oldim.

Yaxshilik qilganda odamning kimligini bilmasligimiz mumkin. Ba'zida yordam qilganimizga qo'pollik bilan javob olamiz. Lekin shunday vaziyatda ham sabr va muloyimlikni yo'qotmaslik kerak. Onamning "Yaxshilikni qilu suvga tashla. Bilmasa baliq, bilar Xoliq" degan nasihati bizga insonlarga mehr-muruvvat bilan qarashni eslatadi.

Diyor ZULFIQOROV.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

O'zbekiston metallurgiya zavodi sobiq itti foq korxonalari orasida 1962-yili birinchilardan bo'lib qanday yangi texnologiyani qo'llagan edi?

1961-yil O'zbekiston metallurgiya zavodi nima bo'yicha qora metallurgiya vazirligi korxonalari orasida oldingi o'rinlarni egallagan?

Elektrda po'lat eritish sexida loyiha quvvatlariga erishilgach zavodda po'lat eritish imkoniyati necha baravarga oshgan?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Prokat sexi ishga tushganidan 5 yildan so'ng -

1951-yil o'z loyiha quvvatiga erishdi va samardorligi dastlabki ishga tushgan yildagidan besh baravar ortdi.

1961-yildan O'zbekiston metallurgiya zavodi foyda hisobiga ishlay boshlagan.

Pechlarning har kvadrat metridan po'lat olishning vazni va vaqti bo'yicha bekobodlik metallurqlar tarmoq korxonalari o'rtasida oldingi o'rinlarni egalladi.

1970-yilda Bekobodlik metallurqlar rejada belgilanganidan 4470 tonnadan oshiq po'lat va 8816 tonnadan ko'p prokat mahsulotlari ishlab chiqarib yubiley mehnat nishoni bilan mukofotlangan va respublika "Mehnat shuhrati" kitobiga kiritilgan.



MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.